



# **MAKTAB AMALIYOTCHI PSIXOLOGLARIGA SIFATLI ISHLASH TASHKIL ETISHLARIDA METODIK YORDAM BERISH**

*G‘ulomova Nodira Fozil qizi*

## *Buxoro viloyati Jondor tumani 7-umumiy o'rta ta'lim maktabi psixologini*

**Annotatsiya:** Umumiy o'rta ta'lim tizimidagi psixologik xizmatning maqsadi-shaxsning har tomonlama garmonik kamoloti, to'laqonli psixologik taraqqiyotni ta'minlovchi qulay shart-sharoitlar yaratishdan iboratdir. Psixologik xizmatda tadqiqot va ta'sir o'tkazish ob'ekti mактабгача yoshdagi bolalar, o'quvchilar, ota-onalar bo'lib hisoblanadi, ularni alohida yoki guruhiy shaklda tadqiq qilish mumkin.

**Kalit so‘zlar:** o‘quvchi, tahlil, professional, stress, shaxs, kontseptsiya, bo‘g‘in, shaxs, metodologiya, rentabellik, rahbar, ruhiy holat, psixik jarayonlar, tajriba.

KIRISH

Psixolog o‘zining inson xulq atvori va psixik faoliyati, psixik taraqqiyotning yosh qonuniyatlari xaqidagi kasbiy bilimlariga, ularning o‘quvchilar va kattalar, tengdoshlari bilan o‘zaro munosabat xususiyatlariga, o‘quv - tarbiya jarayonini tashkil etishga bog‘liqligiga tayanib, bolaga individual yondashuv imkoniyatlarini ta’minlaydi, uning qobiliyatlarini aniqlaydi, normadan chetlashishlarning bo‘lishi mumkin bo‘lgan sabablarini psixologik-pedagogik korreksiya qilish yo‘llarini aniqlaydi. Bu bilan psixologik xizmat maktabda o‘quv tarbiya ishining mahsuldorligini oshirishga, ijodiy faol shaxsni shakllantirishga imkon beradi.

## Psixologik xizmat uch asosiy bo‘g‘indan tuzilgan:

- 1) Aniq o‘quv muammosida ishlaydigan bolalar amaliy psixolog, 2) Tuman xalq ta’limi qoshidagi tashhis markazi.



3) Respublika kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik tashxis markazi. O'zbekiston ta'lim muassasalarida psixologik xizmat quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

- Psixologik tashviqot .
- Psixologik profilaktika .
- Psixologik maslahat .
- Psixologik-pedagogik konsilium .
- Diagnostik-korrektcion ishlar.

Kuzatish natijasida maktabgacha ta'lim va umumiy o'rta ta'limda psixologik xizmatni samarali tashkil etish uchun bir necha muammolar xalaqit beradi. Jumladan, maktabgacha ta'lim tashkilotida: - psixolog bolalar bilan faoliyatni kunning qaysi vaqtida amalga oshirilishi lozimligi haqida hozirgacha aniq ko'rsatma mavjud emas; - kunlik mashhg'ulotlar jadvalida psixolog uchun alohida vaqt ajratilmagan; - ota-onalar uchun psixologik maslahatni qaysi payt amalga oshirish kerak?

Maktab amaliyotchi psixologlari barcha muammolarni hal qilishda bolani har tomonlama va garmonik rivojlanish vazifalariga va uning qiziqishlariga tayanadidlar. Amaliyotchi psixolog o'z faoliyatini pedagogik jamoa va ota-onalar bilan yaqin aloqada amalga oshiradilar. Psixologik xizmat o'z faoliyatida tibbiy, defektologik va boshqa xizmat turlari bilan, bola tarbiyasida yordam ko'rsatuvchi jamoachilik xodimlari bilan yaqin aloqada ish olib boradi. Barcha mutaxassislar bilan munosabat tenglik asosida va fikrlarning bir-birini o'zaro to'ldirishi asosida quriladi.

Umumiy o'rta ta'lim tizimidagi psixologik xizmatning maqsadi-shaxsning har tomonlama garmonik kamoloti, to'laqonli psixologik taraqqiyotni ta'minlovchi qulay shart-sharoitlar yaratishdan iboratdir. Psixologik xizmatda tadqiqot va ta'sir o'tkazish ob'ekti maktabgacha yoshdagi bolalar, o'quvchilar, ota-onalar bo'lib hisoblanadi, ularni alohida yoki guruhiy shaklda tadqiq qilish



mumkin. Maktabda psixologik xizmat samaradorligini oshirish uchun quyidagi yo'llar tavsiya etiladi:

1. Psixologik xizmatning ko'paytirilishi: Maktabda psixologik xizmatning kasbiy kadrlar tomonidan ko'paytirilishi muhimdir. Bu, o'quvchilarga ko'maklashuvchi ko'plab psixologik xizmatlarni taqdim etishga imkon beradi. Psixologlar, o'quvchilarning psixologik muammolarini tahlil qilish, ularga kerakli yordam va ko'maklashishni taqdim etishda o'quvchilarni yaxshi tushunish va qo'llab-quvvatlash imkonini yaratishga xizmat qiladi.
2. O'quvchilarning psixologik holatini baholash: O'quvchilarning psixologik holatini baholashning vaqtida aniqlanishi juda muhimdir. Bu, o'quvchilarning psixologik muammolari va zararli o'zgarishlarni aniqlash imkonini beradi. Baholash jarayonida anketalar, muloqotlar va o'quvchi va ota-onalardan foydalanish mumkin.
3. Ko'maklashish va maslahatlar: Psixologlar o'quvchilarga ko'maklashish va maslahatlar taqdim etishda katta ahamiyatga ega. Ularga o'quvchi va ota-onalardan muloqotlar, shaxsiy ko'maklashuv va maslahatlar orqali o'quvchilarga yordam berishadi. Bu, o'quvchilarning psixologik muammolari, o'z-o'zini boshqarish va o'quv jarayonidagi muvaffaqiyatlari haqida maslahat oladigan imkoniyat yaratadi.
4. Ko'p tahlil va monitoring: Psixologik xizmatning samaradorligini oshirish uchun ko'p tahlil va monitoring jarayonlarini o'rnatish muhimdir. Bu, o'quvchilarning psixologik holatini tahlil qilish, o'zgarishlarni kuzatish va takrorlangan baholarni o'z ichiga oladi. Bu ma'lumotlar asosida, psixologik xizmatning samaradorligi o'rganiladi va kerakli o'zgarishlarni amalga oshirish uchun qo'llaniladi.
5. O'qituvchilar va o'quvchilarning bilimini oshirish: Psixologik xizmatning samaradorligini oshirishda o'qituvchilar va o'quvchilarning bilimini oshirish ham muhim ahamiyatga ega. O'qituvchilar, psixologik xizmatning samaradorligi uchun zarur bilim va tushunchalarga ega bo'lishi kerak. O'quvchilarga esa o'zlarining psixologik holatini tushunish va o'zlarini boshqarishga o'rganish imkoniyati berish muhim ahamiyat kasb etadi.



Maktabda psixologik xizmatlar, o'quvchilar va o'qituvchilarning psixologik xavfsizlik va yaxshi holatda o'qishlarini ta'minlashga yordam beradigan muhim tashkilotlardir. Bu xizmatlar o'quvchilarning o'zlarini boshqarishini o'rganish, o'quvchilarning o'zaro munosabatlari va o'z-o'zini tushunishlarini rivojlantirish va muammolarini hal qilishda yordam beradi. Maktabda psixologik xizmatlar bilan ta'minlash uchun quyidagi faoliyatlar amalga oshiriladi:

1. Individual konsultatsiyalar: Psixologlar o'quvchilar bilan individual ravishda muloqot o'tkazishadi. Bu muloqotlar orqali o'quvchilarning shaxsiy muammolari va tarbiyaviy muammolari tahlil qilinadi, ularga maslahatlar va yordam beriladi, o'zlarini boshqarish va o'zo'zini tushunishlarini rivojlantirishda yordam beriladi.
2. Guruh muloqotlari va tarbiyaviy mashg'ulotlar: Psixologlar o'quvchilarni guruh muloqotlarida birgalikda qo'llab-quvvatlashadi. Bu muloqotlar o'quvchilar orasidagi munosabatlarni rivojlantirish, emotsional muammolarni hal qilish va tarbiyaviy mashg'ulotlar orqali o'quvchilarning o'zlarini tushunishlarini rivojlantirish imkoniyatlarini yaratishda yordam beradi.
3. Ma'lumot va tahlil jarayonlari: Psixologik xizmatlar o'quvchilarning psixologik holatini tahlil qilish uchun ma'lumotlarni to'plashadi. Bu ma'lumotlar, o'quvchilar va ota-onalar izlanishlari, baholashlar, anketalar va boshqa psixologik tahlillar orqali to'planadi. Bu tahlillar asosida o'quvchilarning muammolari aniqlanadi va kerakli ko'maklashish va maslahatlar beriladi.
4. Ko'maklashish va boshqa professional xizmatlar: Psixologik xizmatlar o'quvchilarga ko'maklashish va boshqa professional xizmatlar taqdim etishda ham yordam beradi. Bu o'quvchilarning o'zlarini boshqarish, stress bilan boshqarish, o'z-o'zini ifodalash, o'quvchilarning o'zaro munosabatlari va tarbiyaviy muammolari bilan bog'liq masalalarda yordam berishni o'z ichiga oladi.
5. O'qituvchilar va ota-onalar bilan hamkorlik: Psixologik xizmatlar o'qituvchilar va ota-onalar bilan hamkorlik qilishda ham muhim ahamiyatga ega. Ular o'quvchilarning psixologik muammolari, o'zaro munosabatlari va o'zlarini



boshqarishida ko'maklashish imkonini beradi. O'qituvchilar va ota-onalar bilan muloqotlar, tarbiyaviy ko'maklashish va maslahatlar o'quvchilarga yordam berishda muhim rol o'ynaydi

Ma'lumki, psixologiya fanida aynan psixologik xizmat muammosiga bag'ishlangan va uning barcha yo'nalishlarini batafsil bayon etishga qodir ilmiy adabiyotlar yetarli bo'lmasa-da, bugungi kunda fan olamida va jamiyat taraqqiyotida psixologik xizmat muammosining zarurligini ko'rsata oluvchi va uning "metodologik ildizlarini" asoslab bera oluvchi ilmiy tadqiqodlarni alohida qayd etish mumkin.

Mazkur adabiyotlarni tahlil qilar ekanmiz, ulardagi psixologik xizmat metodologiyasiga taalluqli ayrim umumiyligi jihatlarni ijtimoiy psixologiya fani nuqtai nazaridan tadqiq qilishimizga to'g'ri keladi.

Chunonchi, barcha tadqiqotchilar ham ijtimoiy psixologiyaning metodologik tamoyillariga amal qilgan holda psixologik xizmat uchun muhim bo'lgan u yoki bu jihatni nazariy-ilmiy tarzda asoslab beradilar. Bular ichida psixologik xizmatning muvaffaqiyatli tashkil etilishi uchun muhim nazariy-ilmiy ahamiyat kasb etuvchi ijtimoiy psixologik vazifalarni aniqlashga qaratilgan tadqiqotlarni (G.M.Andreeva, B.D.Parigin, T.V.Snigireva, A.V.Filippov, P.N.Shixirev,

V.A.Yadov) ta'kidlash joiz. O'zbekistonlik psixologlardan M.G.Davletshin, V.M.Karimova, B.R.Qodirov, G.B.Shoumarov, E.G.G'oziev, Sh. R.Baratovlarni alohida qayd etish mumkin. Bu esa psixologik xizmatning bugungi kundagi ayrim dolzarb jihatlari, muammolari va uning yechimlari haqida o'ylashga, fikr mulohaza yuritishga va vazifalarni belgilab olishga nazariyilmiy va metodologik manba sifatida yordam beradi, deb o'ylaymiz. Ijtimoiy psixologiya metodologiyasi, tamoyillari va vazifalarini belgilashga qaratilgan tadqiqotlar mazmunida psixologik xizmat muammosining ham ma'lum ma'noda yashirinib yotganligini ko'ramiz. Gap shundaki, har bir fanning rivojlanishi yangi dalillar asosida ilmiy yo'nalishni ochib beruvchi metodik qurilmalarning tuzilishi





bilan bevosita bog'liqdir. Chunki, aniq metodologiya bo'limgan sohada aniq amaliy natijalar ham bo'lmaydi.

Zero, ijtimoiy psixologiya fanining yana bir muhim yangi vazifasi psixologik xizmat metodologiyasi bilan bog'liq nazariy, amaliy va empirik yo'nalishdagi tadqiqotlar ko'lmini belgilashning bugungi kungacha nechog'lik hal qilinayotganligini tahlil qilishga to'g'ri keladi. Bu borada psixologiya olamida hanuzgacha mukammal tarzda ishlab chiqilgan, rasmiy tarzda tan olingan yagona ilmiy yo'nalish yoki kontseptsianing qabul qilinmaganligi ayon bo'lsa-da, ilg'or g'arb psixologlari, Markaziy hamdo'stlik Davlatlari psixologlari, O'zbekiston psixologlari tomonidan olib borilgan va olib borilayotgan (eksperimental izlanishlarga yo'l ochib berilayotgan) fan olami uchun o'ziga xos salohiyatga va nufuzga ega bo'lgan tadqiqotlar mavjudki, ular qaysidir jihatni bilan psixologik xizmat modeli, uning psixologik himoya vositasi sifatidagi mohiyati, ahamiyati hamda ijtimoiy istiqbollari haqidagi ilmiy-amaliy tasavvurlarimizni shakllantirishga asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Ilmiy adabiyotlardan bizga ma'lum bo'lishicha ijtimoiy psixologik xizmat metodologiyasining umumiy yo'nalishlari G'arb ijtimoiy psixologiya namoyondalari tadqiqotlarini quyidagicha izohlash mumkin: Maslouning fikricha, insonning barcha tug'ma potentsial imkoniyatlari faqatgina ijtimoiy shart-sharoitning yaratilishi bilan ro'yobga chiqishi va kamol topishi mumkin.

Albatta, mazkur fikrlarning nechog'lik haqiqat ekanligini bugungi kunda har bir insonning o'ziga xos va uning ijtimoiy taraqqiyotini ta'minlashga xizmat qiluvchi imkoniyatlari ko'lmini o'rganish hamda tarbiyalashni asosiy vazifa qilib olgan psixologik xizmatning tashkil etilishini muntazam kuzatishlarimiz natijalari tasdiqlab turibdi. O'zbekistonda psixologik xizmat tarkib topishining dastlabki ildizlari va intihosi asrimizning 30-yillardagi pedologiya fani va pedologik xizmat faoliyatlariga borib taqaladi. Mazkur yillarda ta'llim jarayonini tashkil etish va rivojlantirish o'quvchi va o'qituvchi faoliyati bilan bog'liq psixologik omillarga asoslangan va bu talaygina yaxshi natijalar ham bergen.





Biroq, afsuski, o'sha davrda sobiq ittifoq mafkurasi va xalq ta'limi o'rtasida paydo bo'lgan ayrim ob'ektiv va sub'ektiv ziddiyatlar oqimi umumta'lim maktablari uchun muhim ahamiyat kasb etgan pedologik xizmat ildiziga bolta urdi va uni rasmiy tarzda yo'qqa chiqardi. Natijada, pedagogik psixologiya yo'li bilan bajariladigan barcha ishlar maktabda faqat pedagogik yondashuvlar asosidagina amalga oshirildi.

## **XULOSA**

Maktabda psixologik xizmat samaradorligini oshirish uchun bu usullar va yo'llar ishlatalishi tavsiya etiladi. Bu, psixologik xizmatlarning o'quvchilarga ko'maklashish, o'quvchilarning psixologik muammolarini tahlil qilish va maslahatlar taqdim etish, monitoring va tahlil jarayonlarini o'rnatish hamda o'qituvchilar va o'quvchilarning bilimini oshirish imkoniyatlarini qo'llashga imkon beradi. Bunda barcha har tomonlama hamkorlik va tashkilotning qo'shimcha resurslarni taqdim etishi muhimdir.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Z.T.Nishonova, Sh.T.Alimbayeva, M.V.Sulaymonov darslik "Psixologik xizmat" Toshkent-2013
2. E.G'oziyev "Umumiyl psixologiya" O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti -2010
3. OwlCation:"Agressiyaning sabablari:psixologik nuqtai nazar". OwlCation:owlcation.com saytidan 2019-yil 7-0ktabrda olingan.
4. internet materiallari